

2024-yil, noyabr 19-son



# Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL  
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ  
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>

2025  
YIL

“Atrof-muhitni asrash va “yashil”  
iqtisodiyot yili” deb e’lon qilindi





# Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL  
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ  
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

## Bosh muharrir

Nargiza BERDIYEVA

## Tahrir hay'ati:

Nizomiddin Mahmudov  
Yorqinjon Odilov  
Jabbor Eshonqulov  
Baxtiyor Daniyarov  
Abdurahim Nosirov  
To'liq Saydaliyev  
Barno Buranova  
Zulxumor Mirzayeva  
Qozoqboy Yo'ldoshev  
Bahodir Jovliyev  
Salima Jumayeva  
Qayum Baymirov  
Manzar Abdulkayrov  
Alijon Safarov  
Husniddin Norqulov  
Odiljon Boynazarov  
Madina Nuriddinova  
Latifa Xudayqulova  
Barno Kadirova  
Nargiza Mirzayeva  
Guli Shukurova  
To'maris Butunbayeva  
Okila Turakulova  
Yuldosh Raxmatov  
Ramziddin Abdusatorov  
Feruza Manukyan  
Gulchexra Keldiyorova  
Gulsanam Xolikulova  
Komiljon Qarshiyev  
Svetlana Umirova

## Axborot hamkorimiz:



## Muharrirlar:

Bibimaryam RAHMONOVA  
Shabnam G'ANIYEVA  
Bonu DO'SMATOVA

## Sahifalovchi:

Mahliyo ABDUQODIROVA

## Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri  
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.  
Telefon: (98) 121-74-16,  
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,  
(71) 233-03-67.  
e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com



Ilmiy-metodik elektron jurnal

## M U N D A R I J A

### Dolzarb mavzu

Ibodatxon Rustamova. Hikoyada Rovi funktsiyasi.....3  
Saodat Kambarova. Adabiyot darslarida adabiy-nazariy tushunchalarni o'qitish mezonlari.....5  
Nodiraxon Erkaboyeva, Zokirjon Isaqov. Darsliklar – hayotiy ta'lim berish vositasi.....9  
Jamila Djumabayeva, Dilnoza Kurbonova. Integrating the 4Cs into EFL classrooms.....11

### Tilshunoslik

Feruza Abduraximova. O'zbek tilida so'z yasallashining taraqqiyot yo'li.....17  
Muhtabar Sanoyeva. Matnni yaratishga yo'naltirilgan tizimli grammatik topshiriqlar ustida ishlash.....19  
Javlon Ibragimov. Nolisaniy vositalarning so'roq gaplarda namoyon bo'lishi.....22  
Madixabonu Pardayeva. Abdulla Qodiriy hajviyalarida -chi affiksi bilan yasalgan so'zlar tahlili.....25  
Alisher Parmonov. O'zbek va rus tillarida olam lisoniy manzarasining kinoyaviy ifodasi.....27  
Ikram Xudaynazarov. Akademik yozuv va uning rivojlanishi.....30

### Adabiyotshunoslik

Zilola Eshanova. Halima Xudoyberdiyeva ijodida baxshiyona....34  
Shaxnoza Norkulova. Sayyid Qosimiy

"Haqiqatnoma" sining mazmuniy halqasi va tarbiyaviy ahamiyati.....37  
Gulhayo Haydarova. XX asr g'azaliyotida poetika muammolari.....39  
Go'zal Atabayeva. Omon Muxtorning obraz yaratish mahorati.....43  
Akram Hamdamov. Hasad motivi va hasad muammosi.....45  
Laylo To'rayeva. Asad Gulzoda she'riyatida mehnatkash xalq obrazi va ularga munosabat ifodasi.....47  
Fanuza Adilova. Xayriddin Sulton qissalarida obrazlar tabiati tahlili.....50  
Nigora Karimova, Yulduzxon Atakulova. Влияние народной прозы на творческий почерк В. Распутина и Х. Дустмухаммада.....52  
Татьяна Половинкина. Художественное своеобразие сборника А. Волоса «Рассказы из пиалы» .....55  
Masuda Takhirova. Truncated constructions in the text of fictional essay "Salyr-gul".....57

### Ilg'or pedagogik texnologiyalar

Farxod Xalilov, Nigoraxon Akbarova. Yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida talabalarning fuqarolik savodxonligini rivojlantirish va tarbiya borasida sharq allomalarining o'g'itlari.....60  
Ibodulla Uzakov. Ta'limda virtual pedagogikaning o'rni.....62  
Nuriddin Esanov, Zarina Samatova. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida tanqidiy va kreativ fikrlashni

*O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 338/6-sonli qarori bilan Filologiya, Pedagogika hamda Psixologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrdir. <https://oak.uz/pages/4802>*

bo'lagida yuz ko'rsatadi. Ungacha tasvirlangan barcha voqea-hodisalar, hamma tadoriklar ushbu motiv – g'oya namoyon bo'lishi hamda namoyish etilishi uchun tayyorgarlik bosqichidek xizmat qiladi. Muallif kitobxonni bu katta g'oyaga qadam-baqadam tayyorlab boradi. Xususan, uni tasdiqlovchi misolga murojaat qilaylik :

*Gar ajalga davo topsam yetardim haqqa,  
Yechilardi, - derdi Hakim, - barcha savollar*

Zero, Hakim o'z kasbi tabiatiga ko'ra, odamlarni ajal changalidan qutqarishga yo'naltirilgan. Binobarin, Hakim tabib sifatida ajalga qarshi borishi tabiiy. Lekin shu jarayonda Mirzo (boshqacha aytganda, hasad) ajal tarafida turib Hakimga qarshi kurash olib boradi. Hakim hayotining oxirgi soniyalaridagina Mirzo vaqtincha ajal vazifasini, aniqrog'i, ajal yugurdagi vazifasini o'taydi, xolos. Shu tariqa doston konfliktining mazmun - mohiyatini tashkil etuvchi Hakim – Hasad – Ajal uchligi yuzaga chiqadi. Dostonning g'oyaviy qatlamida ham, asosan, uch qahramon ishtirok etadi. Ular shunday uchburchakni hosil qiladi: Hakim – Malika – Mirzo. Bu uchburchakdan dostonidagi yetakchi motivlardan biri – Hasadning yuzaga kelish sabab va manbai aniqlanadi. Shoirning xalq og'zaki ijodi materiallari asosida yaratilgan "Hakim va ajal" dostoniga Ibn Sinoning "O'likni ham

tiriltira oladigan dori" ni kashf etgani haqidagi afsona asos qilib olingan. Bizgacha bu afsonaning ikki varianti yetib kelgan. Birinchisi – buyuk Hakimning shogirdi hayajonlanganidan, dori solingan oxirgi idishni qo'lidan tushirib yuboradi va buyuk Hakim tirilmay qoladi. Ikkinchi variantda esa shogirdidagi hasad tuyg'usi o'z ustozining tirilishiga yo'l bermaydi. Shogird oxirgi idishdagi dorini ustozining og'ziga tomizmaydi. Abdulla Oripov afsonaning ikkinchi variantini tanlaydi. Buning o'ziga xos sabablari bor. Birinchidan, asarning asosiy masalalari – kulminatsion nuqtasi ham, yechimi ham bir nuqtaga – asar oxiriga jamlangan. Oxirgi sahnada buyuklik bilan hasad ning yuzma-yuz kelishi – hasad nomli ijtimoiy illatning jamiyat uchun – insoniyat uchun qay darajada xavfli ekanligi butun bo'y-basti bilan ochib beriladi.

Ana shu ikki oqim – xalq orzusi va Hakimning jahdi – qo'shilib asardagi Ibn Sino obrazining badiiy mukammalligini va dostonning badiiy jozibasini ta'min etgan.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Oripovning "Hakim va ajal" dostoni tarixiy voqelik va xalq og'zaki ijodi motivlarini o'zida mujassam etgan barkamol asar sifatida XX asr o'zbek dostonchiligi yutuqlaridan biri deb baholanishga loyiqdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абу Али Ибн Сина. Канон врачебной науки. Изд.разделне. – Т: Fan, 1985.
2. I.Haqqul. Badiiy so'z shukhi. –T: Adabiyot va san'at nashriyoti. 1987.
3. Qo'shjonov M, Meli Suvon. Abdulla Oripov. –Toshkent: Ma'naviyat. 2000.

Laylo TO'RAYEVA,

*BuxDU O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, f.f.f.d. (PhD), dotsent*

## ASAD GULZODA SHE'RIYATIDA MEHNATKASH XALQ OBRAZI VA ULARGA MUNOSABAT IFODASI

**Annotatsiya:** Buxoro zaminida tug'ilib ijod etgan Asad Gulzoda Buxoriy she'rlarida mardlik, mehnatsevarlik, yaxshi xulq va odob, ota-onaga hurmat, vatanparvarlik, kamtarinlik kabi ulug' fazilatlar kuylanadi. Uning she'rlarida oddiy va halol insonlar bosh obraz sifatida tanlanadi va go'zal kechinmalar bilan gavdalandiriladi. Shoir yaratgan obrazlar orasida mehnatkash oddiy dehqon alohida ajralib turadi. Maqolada o'z mehnati bilan bog'u rog' yaratgan Bobodehqon obrazi rangin ifodalari va badiiyati tahlilga tortilgan.

**Kalit so'zlar:** *she'riyat, ruhiyat, dehqon obrazi, mehnatkash xalq, xalq an'analari, lirik qahramon.*

**Аннотация:** в стихах Асада Гульзаде Бухари, родившегося в Бухаре, воспеваются такие великие добродетели, как мужество, трудолюбие, хорошие манеры и манеры, уважение к родителям, патриотизм, смирение. В его стихах главными героями выбраны простые и честные люди и воплощены прекрасные переживания. Среди образов, созданных потом, выделяется трудолюбивый простой крестьянин. В статье анализируются цветовая выразительность и художественность образа Бободехкана, создавшего лоскут в связи со своим творчеством.

**Ключевые слова:** *поэзия, духовность, крестьянский образ, трудолюбивый народ, народные традиции, лирический герой.*

**Annotation:** the poems of Asad Gulzade Bukhari, born in Bukhara, glorify such great virtues as courage, hard work, good manners and manners, respect for parents, patriotism, humility. In his poems, simple and honest people are chosen as the main characters and wonderful experiences are embodied. Among the images created later, the hardworking simple peasant stands out.

**Key words:** *poetry, spirituality, peasant image, hardworking people, folk traditions, lyrical hero.*

Xalq qalbining aks-sadosi bo'lgan she'riy namunalarni o'qish, yod olish, davralarda aytib yurish ham kishi ruhiyatiga ko'tarinkilik bag'ishlaydi. Zamonaviy she'riyatda folklorga murojaat qilish ijodkor uchun hamisha yengillik, zavq va shavq beradi. Shoirlar xalq ijodiyotidan ilhom olishini, o'zlari yozayotgan ijod namunalari o'zi mansub bo'lgan xalq poetik tafakkurining ulushi borligini o'zlari e'tirof etganlar.

Asad Gulzoda Buxoroning chekka qishloqlaridan birida oddiy mehnatkash oilasida dunyoga kelgan. Uning shoir bo'lib yetishishida oilaning, Buxoro hududidagi ma'naviy muhit, xalqona an'analar go'zal tashbehtar bilan kuylanadigan she'r va qo'shiqlarning ahamiyati katta bo'lgan. Asad Gulzoda Buxoriy ham bolalar, ham kattalar ijodkori. Shoir she'rlarining oddiy va samimiyligi, oddiy xalq turmush tarziga yaqinligi uning xalq og'zaki ijodi chashmalaridan to'yinganidan darak beradi. Asad Gulzoda Buxoriy she'rlarida mardlik, mehnatsevarlik, yaxshi xulq va odob, ota-onaga hurmat, vatanparvarlik, kamtarinlik kabi ulug' fazilatlar kuylanadi. Uning she'rlarida bosh qahramon sifatida oddiy va halol insonlar bosh obraz sifatida tanlanadi va go'zal kechinmalar bilan gavalantiriladi. Shoir yaratgan obrazlar orasida mehnatkash oddiy dehqon obrazi alohida ajralib turadi.

Bilamizki, insoniyatning turmush tarzi mehnatkash dehqonlarning fidokorona mehnatlari bilan go'zallashadi va ma'no-mazmunga to'ladi. Mana shunday go'zalliklarning ma'no – mazmun bilan omixtalashgan oddiy oilada tarbiya topgan betakror shoir Asad Gulzoda Buxoriy she'rlarida oddiy insonlarga xos kamtarinlik, samimiylilik va mehnatsevarlik tuyg'ularining Dehqon obrazida ulug'langanini ko'rishimiz mumkin:

Xele obod medonam,  
Maydoni mehnat xonam.  
Xalqi mehnatkashi on,  
Xalqi zahmatkashi on  
Doyayi davlat hastand,  
Poyayi davlat hastand.  
Bog'u rog' barpo kunand,  
Sahrora zebo kunand.

Mehnatkash xalqni, ular chekkan zahmatlarni ham yaxshi bilamiz. Ular davlatimizning ishonch va tayanchlaridir. Ular sahrodan bog' yaratib, bog'larni yanada go'zallashtirgan tengsiz qahramonlardir, deya ta'riflanadi. Ijodkor mazkur she'rda insoniyatning mehnat ahliga bo'lgan hurmat-izzatini ifoda etadi. Bu badiiy ifodalar yosh avlod ongida mehnatsevarlik tuyg'ularini o'stirishga xizmat

qilganini ko'rishimiz mumkin.

Sabzavoti farovon –  
Serii xurdu kalon.  
Nomi balandi dehqon,  
Zinda bimon qovidon.

Ya'ni, xilma-xil sabzavotlar katta-yu kichikni birday bahramand etadi. Dehqonning baland nomi mangu yashasin, deya xalqona olqishlarni sharaflaydi.

Libosi sabz ba bar kard,  
Zamin dar Idi Navrŷ.  
Dehqon ba kisht sar kard,  
To fardo gardad pirŷ.

Ya'ni, yer o'zining yashil libosini kiydi, u Navro'zga tayyorgarlik ko'ryapti. Dehqonlar esa ekin-tikin ishlarini boshlab yubordi. Yilning to'kin-sochin bo'lishini Navro'zning qanday boshlanishidan ma'lum bo'lishiga ishora qilinadi. She'rda Navro'zning qadami qutlug' kelishiga umid ruhi yaqqol aks ettiriladi.

Shoir bolalarga atab yozgan she'rlarida ham dehqon mehnatini ulug'lab, ularga bu mehnat ahlining hurmat-izzati ulug'ligini uqtiradi.

– Daryocha, ey daryocha,  
Az kucho sar meshavŷ?  
Obi zuloli xudro,  
To ba kucho mebarŷ?..  
... Xizmati dehqon kunam,  
Chŷlro guliston kunam.  
Nozu ne'mat ofaram,  
Mulkro farovon kunam.

Ya'ni, lirik qahramon jilg'adan qayerdan kelayotgani va qayerga ketayotgani to'g'risida so'rasa, jilg'a: boshlanishim chashmadan, senga uning mujdasini, xabarini keltiryapman. Maqsadim esa dehqon xizmatida bo'lish va cho'llarni guliston qilish, noz-u ne'matlarni ko'paytirib, mamlakatni farovon qilishdir, deya javob beradi. O'quvchiga oddiy ko'ringan ushbu savol-javob matni orqali shoir bolalarda mehnatsevarlik va mehnat ahliga hurmat, ularning mehnatini qadrlash fazilatlarini shakllantirishda katta hissa qo'shadi.

“Idoni arzanda” (“Erka bayram”) deb nomlangan she'rda ijodkor bahor bayrami – Navro'zga ishora qiladi. Insonlar bahor kelishi bilan yilning yangilanishi va kelayotgan yilning mo'l hosil yili bo'lishiga umid qilishlari bayon etiladi. Bu ifodalar badiiyat bilan omixtalashtiriladi:

Fasli kishtukor oyad,  
Soli bobaror oyad.

Soli g'allakor oyad,  
 Soli paxtakor oyad.  
 Zamin koni paxta shud,  
 Zamin koni g'alla shud.  
 Hosil farovon gardad,  
 Sol, soli dehqon gardad.

Yoki:

Bahori dehqon omad,  
 Bahori bog'bon omad.  
 Dashtu daman gulzor shud,  
 Bog'u chaman kyhsor shud.

Ushbu she'rda to'g'ridan to'g'ri bahor fasli dehqon va bog'bonlarga tegishliliga ishora qilinadi. Bahor fasli kelishi bilan dehqonlar mehnati bilan dashtlar gulzorga aylanadi.

"Bog'i merosi" ("Meros bog'") she'rida dehqon va bog'bonlar shaxs sifatida ulug'lanadi. Ularning mehnati orqali barcha yerlar yashil libosini kiyishini, bozorlarimiz rastalari rang-barang mevalarga, poliz ekinlariga to'lib turishini, ariqlarimiz suvga to'lib turishini va dasturxonlarimiz non-u bug'doyga to'lib turishini ta'kidlaydi.

Ey padari dehqonam,  
 Ey padari bog'bonam!  
 Azizu mehrubonam,  
 Qadri turo medonam.  
 Bog'i tu barqaror ast,  
 Gulshanu sabzazor ast.  
 ...Dehqoni pursaxovat,  
 Xazinaboni ne'mat.

Dar har davru zamone  
 Shaxsoni nekynome,  
 Girifta bar dast kaland,  
 Sohobi nomi baland,  
 Boboi dehqon shavand,  
 Bori zamonro kashand.

Qadim ajdodlarimizning dehqonchilik bilan shug'ullanib turmush kechirishgani, bu qadimiy kasb hech qachon yo'qolmasligini ularning o'ta saxovatli insonlar ekanligi mazkur she'rda ta'kidlanadi. She'rda yoshlarga qarata bu kasbni sevimli va uni ardoqlab kelajakda davom ettirish lozimligi uqtiriladi.

Chahon shavad guliston  
 Hama cho bog'u byston.  
 Hosil farovon shavad,  
 Osuda dehqon shavad.

Ya'ni, butun jahon guliston bo'lsin, hamma yer bog'-u bo'ston bo'lib, hosillar mo'l bo'lsin va bundan dehqonlarimiz xotirjam, ko'ngli to'q bo'lsin, deya yaxshi niyat qilinadi va dunyo go'zalligining mehvari bu – zahmatkash insonlar mehnatidan ekanligi bayon etiladi.

Yosh avlodni mehnatsevarlik va kamtarinlikka undovchi Asad Gulzoda she'riyati tojikzabon maktablarda keng o'qitilmoqda. Azal-azaldan tojik-u o'zbek tillarida hamjihatlikda umrguzaronlik qilib kelayotgan Buxoro xalqi o'z zamini farzandi bo'lgan Asad Gulzoda ijodini hamisha sevib o'qiydi, o'rganadi. Uning ijodi orqali farzandlariga insoniylik fazilatlarini singdiradi. Shunday ekan, shoir ijodi hamisha barhayot, u hech qachon o'lmaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Асад Гулзодаи Бухорой. Куллиёти осор. Дар 3 чилд. Ҷилди 2. Шеърҳо, дostonҳо, ривоятҳо ва чистонҳо барои кӯдакону наврасон. – Т.: Yangi nashr, 2018. – С.433-434.
2. Асад Гулзодаи Бухорой. Насими Бухоро. ( Шеърҳо, ғазалҳо, мухаммасҳо, рубоий ва дубайтиҳо). – Бухоро: Бухоро, 2001. - С.107.
3. Асад Гулзодаи Бухорой. Қрукуфаҳои Бухоро. – Душанбе: Маориф ва фарҳанг, 2004. С. 104.
4. Turayeva, L. O. (2021). Artistic and compositional features of harvest songs. ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH, 10 (4), 629-634.
5. Тўраева, Л. О. (2024). Ўзбек деҳқончилигида тақвим рамзлари. IMRAS, 7(1), 779-783.